

## ULUG'BEK HAMDAMNING "UZOQDAGI DILNURA" HIKOYASIDA BOSH QAHRAMON TAQDIRI.

*G'ayratova E'zoza Akmaljon qizi*

*GulDU talabasi*

*Muzaffar Mamatqulov*

*Ilmiy rahbari*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Ulug'bek Hamdamning "Uzoqdagi Dilnura" hikoyasi tahlili, unda ilgari surilgan g'oyalar, mavzu ko'lami haqida so'z boradi.

**Kalit so'zlar:** hikoya, obraz, bosh qahramon, xayol, hayot hodisalari.

### **KIRISH.**

Yozuvchi Ulug'bek Hamdamning "Uzoqdagi Dilnura" hikoyasi adib hikoyalari orasidagi eng mashhur hikoyalardan biridir. Bu hikoyada insonning umri ko'z ochib yumguncha tez fursatda o'tib ketishi, odamzotdan qoladigan birdan bir narsa bu faqat yaxshilik ekanligi, inson qalbi, ichki dunyosi boy vaqtida ham, kambag'al bo'lganida ham hech qachon o'zgarmasligi kerakligi, yaqin insonlarni tez-tez yo'qlab turish zarurligi kabi g'oyalar ilgari surilgan.

Asar bosh qahramoni Kozimjon katta ishda ishlaydi va qarindoshlaridan uzoqda, ya'ni shaharda yashaydi. U rafiqasi Mahzuna va qizi Ruxsora bilan birga turadi. Asar Kozimjonning tog'asining erta vafot etishi bilan boshlanadi va asar davomida uning qanday bu yorug' dunyoni tark etganligi, Kozimjonning hayotida tog'asining o'rni qanchalik muhim o'ringa egaligi batafsil berib boriladi. Dastlab Kozimjonga ukasi Nozimjon qo'ng'iroq qiladi va bu mudhish hodisa haqida xabar beradi. Kozimjon to'satdan eshitgan noxush xabar tufayli ancha o'ziga kelolmaydi va ayordamchisiga ishni tashlab, o'zi qishloq tomon yo'l oladi. Lekin yo'lda uncha jazmani Sanam telefon qiladi va olib bermoqchi bo'lgan tillalari Turkiyadan kelganligini aytadi va undan pulini so'raydi. Shunda Kozimjon unga o'ylanib javob bergani uchun, ayol tezda telefonni qo'yib qo'yadi va darrov arazlaydi, erkak esa uning ko'nglini olish uchun orqasiga, ya'ni ayolning yoniga qaytadi va u so'ragan 20 ming dollarni ayolga beradi. Shu vaziyatda Kozimjonning eng katta xatosi kech qolishiga qaramasdan orqasiga qaytishi, ya'ni o'zining nikohida bo'lmagan ayol uchun katta miqdordagi pulni berish uchun taziya kechikishidir. Bu voqeani o'qigan kitobxon bosh qahramondan jirkanadi, uning o'z jufti haloli va shirindan shakar farzandlari bilan turib boshqa ayol bilan yurishi o'quvchi kishini asabiylashtiradi.

Keyin esa u yo'lida davom etadi. Yo'lda antenna bo'lmaganligi tufayli ukasi bilan gaplasholmaydi va antenna chiqqan zahotiyoyq ukasiga qo'ng'iroq qiladi va taziya kech qolganini bo'ladi. U qishlog'iga yetib borganda, mashinasini to'g'ri

qabriston tomonga haydaydi va shu jarayonda bolaligi ko'z oldida gavdalanadi, Yunus tog'asi bilan har doim o't yulish uchun qabristonga borishini, chunki o'sha paytlarda hamma joyga paxta ekilishi, hattoki, hovlisidagi tomorqasiga ham paxta ekishlarini, qabristondagi o'tlarni yulgnadan ana, tog'asi uni mototsikliga ortib, birinchi Kozimjonlarning uyiga borib, o'tning yarmini ularnikida qoldirishini eslaydi. Shu holatda u qabristonga yetib boradi va kech qolganligini angelaydi. Kozimjon odamlarning oldiga borganida allaqachon "yangi qabr do'ppayib turardi".

Keyin esa hamma qiroat qilib, qishloqqa qaytishadi. "Qishloq zulmatdek edi",- deydi yozuvchi. Bu orqali qishloq ham Yunus tog'aning erta dunyodan ketganiga xafaligi, u ham odamlar singari yig'lab yotgani va shu tufayli zulmatga, ya'ni qop-qorong'i tunga aylangani ifodalangan. Kozimjon va ukasi mayit chiqqan uyga borishadi va u yerda Kozimjon mudhish bir holatga guvoh bo'ladi. Yunus tog'aning kenja farzandi Dilnura baqirib yig'laganini eshitadi: "Voy dadajonim!.. Yoningizda yurib diydoringizga to'yolmadim. Qo'limizning kaltaligi qursin, ko'nglingiz tusagan ovqatni ham qilib berolmadim". Bundan anglashiladiki, Yunus tog'aning oilasi kambag'al edi. U bechora davolanish uchun ham pul topolmagan, doktorlar unga "yotmasangiz tuzalmaysiz" deganida ham u buncha beparvo qaragan, chunki unda yetarlicha pul bo'lmagan. Yunus tog'aning o'limidan hammadan ko'p mana shu kichik qizi kuyunardi, chunki u dadasini juda ham yaxshi ko'rardi.

Hikoyani diqqat bilan o'qisak, oila faqatgina Yunus tog'aning qo'liga qaragan edi. Uning ikkita o'g'li bo'lsa ham, ular haligacha o'zlarini eplolmasdilar. Shuning uchun Dilnura ikki akasini ayblaydi. "Dada dema. Endi dadang bo'lib qoldimi? O'lganida... Tirigida qayerda edilaring?" deb hiqqillab yig'lardi bechora qiz. U xuddi Kozimjondan taskin topadigandek, uning bo'yniga osilib yig'lardi va dadasining qorason kasalligi tufayli vafot etganini aytardi.

Kozimjon o'zining onasidek bo'lib qolgan ayol yangasining yoniga kiradi va yangasi unga "Tog'angiz o'lguncha men o'lsam bo'lasmidi. Axir u nogiron b'lsa ham bolalarga tirgak edi. Mendan ko'ra foydasi ko'proq edi", deb yig'laydi. Bu gaplar xuddi tog'aning o'limiga achinganidan emas, oila boquvchisidan quruq qolayotgandek, endi bularning kuni tog'asiz qanday o'tishi haqida qayg'urayotgandek aytilgan edi. Kozimjonning qotib ketgan ko'ksi ham bunday yig'i-sig'ilarni ko'rib, biroz erigandek bo'ldi. U shaharda yuraverib, yaqinlariga bemehr bo'lib qolgan edi.

Kozimjon kechki payt ukasi bilan Nozimjonning uyiga qaytadi va kechasi bilan to'lib uxlolmay chiqadi, uning yuragini tog'asining o'limi o'rtardi. Tong otgach ukasi bilan birgalikda mozor boshiga boradi va u yerda qabrni quchoqlab yig'layotgan Dilnurani ko'radi, hech kim Dilnurani ovutolmas edi, akalari uni ikki qo'lidan ushlab uyga olib ketmoqchi bo'lganda ham u akalariga ro'yxushlik bermasdi va to'satdan u hushidan ketadi va akalari shundagina uni olib ketishadi.

Kozimjon hayot deganda har doim shahardagi tarallebedod yurishlarini tushunardi. Hattoki, u shaharga qaytayotganda ham yangasining qo'liga o'rog'liq pul beradi va "Ko'p ham siqilmang, tog'amni o'rnini bildirmaymiz, har oy pul yuborib turaman", deydi. Lekin o'zi ham keyinchalik bu gaplaridan jirkanadi. U qadr-qimmatni ham, mehr-oqibatni ham ko'pincha pul bilan o'lchardi.

U qishloqdan chiqib ketganida 17 yoshda bo'ladi. Qishloqdan ketganiga ham 24 yil bo'lgan bo'ladi va shundagina u umrning suvdek oqishini, hayot qadrini anglagandek bo'ladi, lekin shaharga qaytishi bilan uning yuragi yana asl holiga qaytadi. U shaharga ketib borar ekan, Yunus tog'asi bilan bo'lgan so'nggi xotiralarni eslaydi:

Tog'a bir kun jiyaniga aniqroq qiladi va bir oyog'i kesib tashlanganini, ikkinchi oyog'ini ham davolamasa bo'lmasligini aytadi va Kozimjondan pul so'raydi. Kozimjon esa shoshib gapirgancha, pul jo'natishini aytadi va tog'asi uning ishi ko'pligini tushunib, undan kechirim so'raydi. Lekin Kozimjon tog'asi so'ragan pulni yubormaydi, chunki o'sha zahotiyiq bu narsa uning xayolidan ko'tarilgan edi. Tog'asi esa unga qaytib pul so'rab qo'ng'iroq qilmaydi. Kozimjon turli xil behayo ayollar, ichkilik, qisqa qilib aytganda, aysh-ishratga berilib ketgan edi. Uning uchun yaqinlarini yo'qlash, ulardan xabar olish so'nggi masala edi. Lekin u tog'asiga pul yuborish esidan chiqqaniga o'zidan o'zi afsuslanar, o'zini yomon ko'rib ketardi. U shu onda yana bir voqeani eslaydi. Bolalik kunlarida tog'asi bilan Qirg'izistonga o't olib kelishga boradi, chunki u yerda o't juda serob bo'ladi. Kozimjon o'ynab yurgan vaqtida tepadan tushib kelayotgan Dadaxonni ko'radi. Dadaxon o'sha yerning raisi edi va tog'asiga uni aytmoqchi bo'ladi, lekin ovozi u yergacha yetib bormaydi. Tog'a ellik qadam narilarda ishtiyiq bilan o't o'rayotgan bo'ladi. Dadaxon kelib bolani chakkasi bir musht tushuradi, shunda bola yumalab ariqqa kirib ketadi va jon holatda "tog'a" deb qichqiradi. Tog'asi bola tomonga qarab vaziyatni anglaydi va yugurib kelib Dadaxonga tashlanadi, ammo tog'a juda ham kichkina edi, Dadaxonga kuchi yetmaydi, Dadaxon unga ham musht tushiradi va u ham ariqqa yumalab qoladi, yana ariqdan chiqib, Dadaxonga tashlanadi, ammo bu safar rais uni ko'tarib, ariqning ichiga shalop etib tashlaydi va agar yana bir marta uni bu yerda ko'rsa, o'ldirishini aytadi va undan ketadi. Shunda tog'a ariqdan chiqqanda uning oyog'idan shovullab qon oqayotganini ko'rishadi, bola ariqqa yiqilgan vaqtda uning o'rog'i ham suvga tushib ketgan bo'ladi va Yunus tog'aning oyog'iga o'sha o'rog' kirib ketgan bo'ladi. Tog'a o'tlarni mototsikliga ortib, hammasini Kozimjonlarnikiga tushiradi. Kozimjon nega bunaqa qilyapsiz deganda, yoq "Meni tergaydigan otam yo'q" deydi va o'tni tishirayotib tog'a bir alfozda yerga yiqiladi. Bundan shuni tushunishimiz mumkinki, tog'a o'sha voqeadan keyin "qorason" kasalini orttirgan bo'lishi mumkin. Tog'a jiyaniga juda ham mehribonligi asarning boshidan oxirigacha mahorat bilan yoritib berilgan.

Kozimjon uyiga yetib borgandan so'ng ertasi kuni abetgacha qotib uxlaydi. Ishga boradi va ertaga safari borligini yordamchisidan biladi. Kechqurun esa bazmga boradi va u yerda to'ygunicha ichadi va aysh-ishratni yana davom ettiradi. Uning vujudi yana eski holiga, qahri qattiq holiga qaytgan edi. Unga to'satdan ukasi qo'ng'iroq qiladi va tog'asining qizi Dilnuraning o'lganligini aytadi, u bunga bee'tibor qaraydi va go'shakni qo'yib qo'yadi. Ichkariga kirib yana aysh-ishratni davom ettiradi va unga yoqqan raqqosaning ismini so'raydi, shunda u Dilnura deb javob beradi. Shunda Kozimjon biroz o'ylanib qoladi va Dilnura ismli raqqosa bilan birga mashinasiga o'tirib ketadi. Uning xayolidan kechagi voqealarning barchasi ko'tarilmadi. U umuman tog'asi haqida ham, uning qizi haqida ham o'ylamasdi.

### **Xulosa.**

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, yozuvchi bu hikoya orqali bosh qahramon Kozimjonning uzoq shaharda yashab qanchalik bemehr bo'lib qolganligini, uning ko'ziga faqatgina pul, ayollar ko'rinishi, hattoki o'z oilasiga ham yetarlicha e'tibor bermasligini, puli ko'pligi sababli hamma narsani oson sotib olish mumkin deb o'ylaydigan obrazni, o'z jufti haloli bo'la turib, boshqa ayollar bilan vaqtini choq o'tkazadigan vijdotsiz insonni, yaqin qarindoshlariga saxiylik qilish o'rniga pulini qadrsiz narsalarga sarflaydigan personajni ochib bergan. Yozuvchi Yunus tog'a orqali esa kambag'allikdan qiynalgan, puli yo'qligi sababli o'zini davolatolmagan, faqatgina topgan pulini oilasiga sarflaydigan, jiyanlariga mehribon, nafaqat jiyanlari balki butun insoniyatga mehribon obrazni gavdalantirgan. Uning mehribonligini ta'ziasiga kelgan keti uzilmagan odamlardan anglashimiz mumkin. Bu hikoya orqali yozuvchi inson har doim yaqinlarini yo'qlab turishi, qancha puli ko'p bo'lmasin ularni faqatgina yaxshi ishlarga sarflashi, umr qisqaligi, mana shu qisqa hayotda faqatgina o'zidan yaxshi nom qoldirishini aytib o'tmoqchi bo'ladi. Bu hikoya kitobxonlarga ma'naviy ozuqa beradi, ularga hayot haqiqatlarini ertaroq anglashga ko'maklashadi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Ulug'bek Hamdam "Uzoqdagi Dilnura" hikoyasi. 2009.
2. Soqiyeva Zarnigor "Ulug'bek Hamdam hikoyalarida xayol va haqiqat" maqolasi. "Science and Innovation" jurnali. 2022.
3. Ziyouz.com sayti